# NAFAS YO'LLARI KASSALIKLARI BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI DAVOLASHDAGI YONDASHUVLAR

**Tolibova Nozanin**
Osiyo Xalqaro Universiteti Talabasi
Ilmiy Rahbar: **Jumayeva Dilnoza**
Fundamental fanlar kafedrasi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23833085

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada nafas olish tizimi kasalliklari bilan kassalangan bemorlarni davolashda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar kasallikning kelib chiqish sabablari rivojlanish mexanizmlari asosiy klinik belgilari tashxislash usullari va davolash usullari yaratilgan shuningdek branxit,branxial astma pnevmaniya va surunkali obstruktiv o'pka kasalliklari kabi eng keng tarqalgan nafas yo'llari kasalliklarini davolashda dori vositalardan to'g'ri foydalanish kislarod terapiyasi nafas mashqlari fizioterapevtik muolajalar hamda bemorlarni parvarish qilishning ahamiyati yoritilgan

KIRISH.

Nafas olish tizimi inson oraganizmining hayotiy muhim tizimlaridan biri bo'lib organizmni kislarod bilan ta'minlash va moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'ladigan karbonat angidrid gazini tashqariga chiqarish vazifasini bajaradi.Nafas olish tizimining normal faoliyati barcha a'zo va to'qimalarning kislarod bilan yetarli darajada ta'minlashi kerak va organizmning umumiy holati uchun zarur bo'ladi.Bugungi kunda nafas olish tizimi kasalliklari tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi pnevmoniya, branxial astma va nafas yo'llari kasalliklari turli yoshdagi insonlar orasida uchraydi.Zamonaviy tibbiyotda nafas olish tizimi kasalliklarini davolash uchun turli usullar qo'llaniladi.Jumladan, kasallik sababiga muvofiq dori vositalarini qo'llash, bronxlarni kengaytiruvchi preparatlar,yallig'lanishga qarshi vositalar, zarur hollarda antibiotiklar,ingalatsion davolash,kislarod terapiyasi va nafas mashqlaridan foydalaniladi.Bunda dori vositalarini shifokor tavsiyasiga muvofiq qo,llash, usullarning samaradorligi va nojo'ya tasirlarini kuzatish muhim hisoblanadi.Antibiotiklar esa faqat tegishli ko'rsatmalar mavjud bo'lganda qo'llanilishi lozim.

PNEVMONIYA – bu o'pka to'qimasining xususan alveolalar va ularni o'rab turgan interstitsial to'qimalarning infeksion yallig'lanish kasalligidir kasallik vaqtida alveolalar ichida yallig'lanish suyuqligi to'planishi mumkin natijada o'pkada gaz almashinuvi buzilib organizmga kislorod yetib borish qiyinlashadi bu bolalar keksalar imuniteti pasaygan insonlar va surunkali kasalliklari mavjud bemorlarda og'ir kechishi mumkin pnevmoniyaning asosiy sabab turi mikroorganizmlar tomonidan o'pka to'qimasining zararlanishidir

1.BAKTERIYALAR – strepococcus pneumoniae kabi bakteriyalar pnevmaniyaning muhim sababi hisoblanadi

2.VIRUSLAR -gripp virusi respirator sinsitial virus va boshqa respirator viruslar

KASALLIK RIVOJLANISHIGA XAVF KELTIRUVCHI OMILLAR

1. Imunitetning pasayishi
2. Chekish va havoning buzilishi
3. Surunkali o'pka va yurak kasalliklari
4. Qandli diabet



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

5. DAVOLASH USULLARI
6. Antibiotiklar bilan davolash
7. Virusga qarshi preparatlar
8. Balg'am suyultiruvchi dorilar
9. Kisloros terapiyasi

BRONXIAL ASTMA – nafas yo'llarining surunkali yallig'lanish kasalligi bo'lib bronxlarning turli tasirlarga nisbatan yuqori sezuvchanligi va torayishi bilan xarakterlanadi kasallik vaqtida bemorda nafas qisishi hushtaksimon nafas ko'krak qafasida siqilish hissi va yo'tal kuzatiladi ushbu belgilar ko'pincha kechasi yoki tonga yaqin kuchayadi va turli vaqtlarda har xil darajada namoyon bo'ladi kelib chiqish sabablari

1. IRSIY MOILLIK: oilada bronxial astma yoki allergik kasalliklarning mavjudligi
2. ALLERGENLAR: uy changi o'simlik changlari mog'or zamburug'lar
3. NAFAS YO'LLARI INFEKSIYALARI: ayrim virurusli infeksiyalar astma belgilarini kuchaytirishi mumkin

KASALLIKNI DAVOLASHDAGI YONDASHUVLAR :

Nafas olish tizimi kasalligi davolash zamonaviy tibbiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hiaoblanadi nafas sistemasi organizmni kislorod bilan taminlaydi va karbanat angidridni tashqariga chiqaradi ushbu tizim faoliyatining buzilishi to'qimalarda kislorod yetishmovchiligiga nafas yetishmovchiligiga va boshqa jiddiy asoratlarga olib kelishi mumkin nafas sistemasi kasalliklarini davolashda kasallikning kelib chiqishi sababi turi og'irlik darajasi bemorning yoshi umumiy holati va hamroh kasalliklar hisobiga olinadi davolashning asosiy maqsadi kasallik sababini bartaraf etish simptomlarini kamaytirish nafas olish faoliyatini yaxshilash asoratni oldini olish va bemorning hayot sifatini oshirishdan iborat

ASORATNI OLDINI OLISH :

Nafas sistemasi kasalliklarida asoratlarning oldini olish tibbiyotning muhim vaziyatlaridan biri hisoblanadi.Nafas olish tizimi organizmni kislarod bilan ta'minlash va karbonat angidridni chiqarishda muhim rol o'ynaydi.Ushbu tizim kasalliklari o'z vaqtida aniqlanmasa yoki to'g'ri davolanmasa,nafas yetishmovchiligi,o'pka to'qimasining zararlanishi va boshqa jiddiy holatlarga olib kelishi mumkin.Asoratlarning oldini olish uchun kasallikni erta aniqlash,shifokor tavsiyalariga rioya qilish,dori vositalarini to'g'ri qo'llash, bemorning umumiy holatini kuzatish va frofilaktik tadbirlarni muntazam amalga oshish zarur.

Kasallikni erta aniqlash.Yo'tal hansirash,nafas olish qiyinlashishi erta tashxis kasallikning og'irlashish xafini kamaytiradi.Shifokor buyurgan dori visitalarini belgilangan tartibda qabul qilish muhimdir.Antibiotiklarni o'zboshimchalik bilan ishlatish,davolashni o'z vaqtida tugatmaslik yoki dorilar dozasini mustaqil o'zgartirish mumkin emas,tamaki tutuni bronxlar va o'pka to'qimasiga zarar yetkazadi.Chekish surunkali bronxit, surunkali obstruktiv o'pka saratoni xavfini oshiradi,passiv chekishdan ham saqlash lozim,qo'llarni muntazam yuvish, xonalarni shamollatish,yo'tal yoki aksirish paytida og'iz va burunni tirsak bukilmasi bilan yopish yoki bir martalik salfetkadan foydalanish.

Xulosa



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Nafas sistemasi kasalliklari bugungi kunda inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi kasalliklar qatoriga kiradi.Nafas olish tizimi organizmni kislarod bilan taminlash, karbonat angidridni tashqariga chiqarish va barcha a'zolar faoliyatining me'yorida kechirishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizm faoliyatining buzilishi insonning umumiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli kasalliklar va xavfli asoratlarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.Nafas sistemasi kasalliklariga bronxial astma,bronxit, pnevmoniya, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi,o'pka sili va boshqa patologik holatlar kiradi.Ushbu kasalliklar turli sabablar,jumladan, virus va bakteriyalar,allergenlar,tamaki tutuni,havoning ifloslanishi hamda zararali ishlab chiqarish omillari tasirida rivijlanishi mumkin.Kasalliklarning asosiy belgilariga yo'tal,hansirash,balg'am ajralishi, ko'krak qafasidagi og'riq tana haroratining ko'tarilishi va umumiy holsizlik kiradi.Nafas sistemasi kasalliklarini samarali davolash va ularning oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi.Kasalliklarni erta aniqlash,to'g'ri tashxis qo'yish,zamonaviy davolash usullaridan foydalanish, malakali tibbiy hamshiralik yordamini tashkil etish bemorning sog'lig'ini tiklashda muhim ahamiyatga ega.Har bir inson o'z salomatligiga mas'uliyat bilan yondashishi,zarur odatlardan saqlanishi va kasallik belgilari paydo bo'lganda o'z vaqtida shifokorga murojaat qilishi lozim.Shu orqali nafas sistemasi kasalliklarining tarqalishi,og'ir asoratlar rivojlanishi va kasallik tufayli yuzaga keladigan nogironlik xavfini kamaytirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlyanova Z.F Ichki kasalliklar propedevtikasi
2. Rizayev.J.A Pulmonologiya asoslari
3. Maxmatmurodova N.N Immunologik biomarketlar asosida nospetsefik intersitsial pnevmoniya diagnostikasi



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.